

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**KURALOVA RA'NO MIRZAALIYEVNA**

**SHIRINMIYA (*GLYCYRRHIZA GLABRA L.*) O'STIRISH ORQALI  
SHO'RLANGAN TUPROQLAR MIKROFLORASINI YAXSHILASH**

**03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya**  
**03.00.10 – Ekologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

<b>Kuralova Ra’no Mirzaaliyevna</b> Shirinmiya ( <i>Glycyrrhiza glabra</i> L). o‘stirish orqali sho‘rlangan tuproqlar mikroflorasini yaxshilash .....	3
<b>Куралова Раъно Мирзаалиевна</b> Улучшение микрофлоры засоленных почв путем выращивания солодки ( <i>Glycyrrhiza glabra</i> L).....	21
<b>Kuralova Ra’no Mirzaalievna</b> Improving the microflora of saline soils by growing licorice ( <i>Glycyrrhiza glabra</i> L).....	40
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	44

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**KURALOVA RA'NO MIRZAALIYEVNA**

**SHIRINMIYA (*GLYCYRRHIZA GLABRA* L.) O'STIRISH ORQALI  
SHO'RLANGAN TUPROQLAR MIKROFLORASINI YAXSHILASH**

**03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya  
03.00.10 – Ekologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/B652 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.chdpu.uz.ilmiy-kengash](http://www.chdpu.uz.ilmiy-kengash)) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Qo‘shiyev Habibjon Hojiboboyevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Xusanov Tohir Sunnatovich**  
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xo‘janazarov O‘ktam Eshtemirovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Sherqulova Jamila Payanovna**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.B.82.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temir ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712–27–55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: [chdpukengash@umail.uz](mailto:chdpukengash@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temir ko‘chasi, 104-uy, Tel.: (99870) 712–27–55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: [chdpukengash@umail.uz](mailto:chdpukengash@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ -raqamli reestr bayonnomasi).

**V.B. Fayziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik Ilmiy kengash raisi,  
biologiya fanlari doktori, professor

**A.Q. Bo‘ronov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

**X.A. Mo‘minov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,  
biologiya fanlari doktori, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ekin maydonlari tuprog'ining sho'rlanish darajasi ortishi va qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketish hajmi kengayishi tufayli ekologik vaziyat keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra bioekologik tizimni yaxshilash uchun degradatsiyaga uchragan yerlarni ekologik qayta tiklash, tuproq unumdorligini oshirish bilan bog'liq holda tabiiy resurslardan, jumladan, mikroorganizmlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Jahonda yuz berayotgan global iqlim o'zgarishlari yerlarning degradatsiyaga uchrashi oqibatida dunyo bo'yicha qariyb 2 milliard gektar yer maydoni yaroqsiz ahvolga kelib qolayotganligi va ushbu muammoni hal etishda dukkardoshlar oilasiga kiruvchi o'simlik turlari va ularning ildiz tizimidagi tuganak bakteriyalardan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda mikroorganizmlar yordamida bioekologik tizimni yaxshilash orqali tuproq mikroflorasini tiklash va azot fiksatsiyalovchi bakteriyalarni biotexnologik usullar yordamida ko'paytirib, qishloq xo'jaligida foydalanish uchun ularning faol shtammlaridan biopreparatlar yaratish hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga alohida e'tibor berilmoqda. Mikroorganizmlardan inson faoliyati asosida turli sohalarda keng qo'llanilishi bilan birga sho'rlanish tufayli degradatsiyaga uchragan yerlarni ekologik qayta tiklashda mikrobiologik usullar yordamida bakteriyalar imkoniyatlaridan foydalanish katta qiziqish uyg'otmoqda. Shunga ko'ra tuproq tarkibini foydali bakteriyalar bilan boyitish va ulardan o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini stimullovchi biopreparatlar sifatida foydalanish ilmiy-amaliy jihatiga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda tuproq unumdorligini oshirish, sho'rlanish tufayli foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni o'simlik resurslari va ulardan mikrobiologik usullar yordamida ajratib olingan mikroorganizmlarning produtsent shtammlaridan foydalangan holda ekologik qayta tiklash hamda ularning amaliy va iqtisodiy natijalarini asoslash bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish<sup>1</sup>» vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarini amalga oshirishda, jumladan mahalliy galofil bakteriya shtammlari va xomashyolar asosida sifatli, ekologik toza, yangi zararsiz biopreparatlar olish va ulardan sho'rlanish tufayli degradatsiyaga uchragan tuproqlarni ekologik qayta tiklash va unumdorligini oshirish maqsadida foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son «Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-76-son "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 - yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2023-yil 31-maydagi PF-81-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ilmiy manbalaridan ma‘lumki, mikroorganizmlar asosida tuproq unumdorligini yaxshilash va degradatsiyaga uchragan tuproqlarni ekologik qayta tiklash imkonini beradigan biopeparatlarni olish Angliyada S.E.Smith, D.J.Read (1997), Amerikada S.Vissardi, V.Ventorino (2016), Argentinada J.Noar, J.Bruno-Barsena (2018) ishlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, tuproq mikroflorasi bilan bog‘liq tadqiqotlar Indian Institute of Teshnology (Hindiston), Sonsho Petroleum So, Ssientifis and Applied Proseses Pty. Ltd, Amerisan Solloid Sompany, Nihon kabayto kogyo Kabushiki Kaisha (Yaponiya), Kogyo gidzyutsu intyo, Kamishimo Kagaku Kogyo Kabushiki Kaisha, Kessel und Waggonban (Avstriya), Hunnon dzyukagaku koge k.k., Oesterreishish-Alpine Montangesellshaft, Iran University of Ssiense and Teshnology (Eron)da olib borilishi ilmiy manbalarda o‘z aksini topgan. Shu kabi tadqiqotlar O‘g‘itlar va insektofungitsidlar ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya) hamda Umumiy va noorganik kimyo institutlarida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

MDH va Markaziy Osiyo davlatlarida T.F. Persikova (2001), N.A.Propopov (2003), V.K. Chebotar (2007), I.A. Tihonovich (2009), Yu.V. Laktiono (2014), Ya.K. Kulikov (2022) va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda o‘simlik resurslari, jumladan, dukkakli ekinlar yordamida biologik azot to‘planishi asosida tuproq unumdorligi ortishi qayd etilgan. Shu bilan birga, ushbu olimlar tadqiqotlarida azotofiksatsiya jarayonida tuproqning fitosanitar holatini yaxshilanishi va uning mikrobiologik aktivligi oshganligi aniqlangan.

MDH davlatlaridan bo‘lgan olimlarning bir qator ilmiy tadqiqotlari mavjud, jumladan, A.A.Zabokritskiy (2019), A.V.Ivenin (2020), V.E.Soprunova (2020), I.I.Novikova va boshqalar (2022) tomonidan *Bacillus atropaeus* bakteriyalari, *Paenibacillus bakteriyalari*, *Pseudomonas* bakteriyalari suspenziyalarini joriy etishga doir tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, Z.YU.Sirayeva (2012), V.A.Semikin (2012), S.E. Tretyakova (2013), M.T. Muxina (2017), A.I.Cheremisin (2017), A.E.Sekirnikov (2019), D.G. Baubekova (2020), tomonidan biopreparatlar tarkibida ularning ta‘sirini ishlab chiqish va o‘rganish bilan bog‘liq ishlar olib borilgan.

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham shunga o‘xshash tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, paxtachilikda “Mikrozim-2” biopreparatlardan foydalanish Z.R.Axmedova (1999) hamda Fosstim-1, Fosstim-2 va Serhosil, X.S.Narbayeva va boshqalar (2018) tomonidan, I.Sattori (2022), O.U.Normurodovlar (2022) tomonidan *Bacillus subtilis*, *B.megaterium* var *phosphatium* asosida olingan Yer malhami, Bist, Subtin kabi mikrobiologik preparatlardan amaliyotda foydalanilgan Q.D.Davranov va boshqalar (2022) tomonlaridan ishlab chiqilgan va qishloq xo‘jaligida keng miqyosida qo‘llash borasida tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo, Sirdaryo viloyati sharoitida shirinmiya o‘simligining ildiz rizosfera bakteriyalarni ajratib olib, ularning o‘stirish orqali sho‘rlangan tuproqlar mikroflorasini yaxshilash imkoniyatlari o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotning boshqalardan farqi ilk bor shirinmiya o‘simligining ildizidan mikrobiologik usullar asosida ajratib olingan bakteriyalarning yangi shtammlari, ularning taksonamiyasi, biologik xususiyatlari, fitopatogen zamburug‘larga qarshi antoganistik xususiyatlari, bakteriya shtamlarini fitogarmonlar hosil qilish imkoniyatlari va o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga hamda tuproq unumdorligiga ta‘siriga doir ma‘lumotlar o‘rin olgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti “Agrobiotexnologiyalar va Biokimy o ilmiy tadqiqot instituti” ning ilmiy ishlari rejasiga muvofiq A-M3-2019-41 “Sho‘rlangan tuproqlarda ildiz tizimining mahsuldorligi va hosildorligini oshirish uchun shirinmiya o‘stirish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sho‘rlangan tuproq sharoitida yetishtirilgan *Glycyrrhiza glabra* L. o‘simligining ildiz mikroflorasini mikrobiologik va molekulyar-genetik yondashuvlar asosida identifikatsiya qilish hamda tuproq mikroflorasi va ekologik ko‘rsatkichlarga ta‘sirini baholashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

*G. glabra* L. o‘simligi ildiz tizimidan rizosfera bakteriyalarini mikrobiologik usullar yordamida monokultura holda ajratib olish, shtammlarining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish va molekulyar-genetik tahlil qilish hamda identifikatsiyalash;

tuproq mikroflorasining sho‘rlangan ekin maydonlarining ekologiyasiga ta‘siri va unumdorligini oshirishdagi ahamiyatini mikrobiologik yondashuvlar asosida tahlil qilish;

sho‘rlangan tuproqlarni ekologik qayta tiklashda *G. glabra* L., o‘simligi ildizi tizimidagi bakteriyalarni rolini mikrobiologik usulda baholash;

*G. glabra* L. o‘simligining tuproq tarkibidagi mikroorganizmlar miqdori va tuproq ekologiyasi hamda unumdorligini oshirishdagi ta‘sirini aniqlash;

o‘simlik ildizidan mikrobiologik usullar yordamida ajratib olingan bakteriya shtammlari bilan inokulyatsiya qilish orqali o‘simliklarning urug‘i va vegetatsiya davrida o‘sishi va rivojlanishiga ta‘sirini o‘rganish;

*G. glabra* L., o'simligi ildizdan mikrobiologik usulda ajratib olingan bakteriyalar asosida sho'rlangan tuproqlar unumdorligini oshirish, ekologiyasini yaxshilash va o'simliklarning o'sish-rivojlanishida ahamiyatli bo'lgan mikrobiologik preparat yaratish hamda amaliyotga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Sirdaryo viloyati hududida ekilayotgan *G. glabra* L. o'simligi, bug'doy va g'o'za o'simligi sho'rlangan tuproq tarkibidagi mikroorganizmlar hamda ildizdan ajratib olingan bakteriyalarning *Bacillus licheniformis*, *Bacillus halotolerans*, *Bacillus subtilis* shtammlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** sho'rlangan tuproq tarkibidagi mikroorganizmlarni ajratish va mikroklonal ko'paytirish asosida tuproq ekologiyasini qayta tiklashda foydalanish tizimini ishlab chiqish hamda *G. glabra* L., o'simligining ildiz tizimidan mikrobiologik usullarda ajratib olingan bakteriya shtammlarini o'simliklarni o'sishi va rivojlanishidagi ahamiyatini molekulyar-genetik tahlil qilish asosida mikrobiopreparat yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ekologik, biotexnologik, biokimyoviy va fiziologik usullardan, tuproqning agrokimyoviy, agrofizik va mikrobiologik tahlil qilishda «Agrokimyoviy va mikrobiologik tadqiqot usullari va sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari» qo'llanmasidan foydalanilgan. Bakteriya shtammlarining kimyoviy tahlili Yuqori Samarali Suyuqlik xromatografiya (YSSX) va ularni idenfikatsiyalovchi Gene Sequence-Based, PSR amplification of V4 region (16S rRNA), BLAST analysis va Gel electrophoresis usullari yordamida o'rganilgan. Tadqiqot natijalarini statistik tahlil qilishda SPSS-17 dasturidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

*G. glabra* L., ekilgan sho'rlangan tuproqlar mikroflorasining qayta tiklanishi asnosida ekologik qayta tiklanishi va bunda nitrofikatsiyalovchi hamda ammonifikatsiyalovchi bakteriyalar faolligini ortishi bilan bog'liq holda tuproq unumdorligi va bioekologiyasini yaxshilanishi isbotlangan;

*G. glabra* L., ildiz tizimidan mikrobiologik usulda ajratib olingan bakteriyalardan yil davomida o'rta hisobda 115 mg gibberillen fitogormoni hamda 1,42 mg/gr asparagin, 0,61 mg/gr serin, 0,59 mg/gr tirozin aminokislotalari ajralishi aniqlangan;

*G. glabra* L., o'simligining ildiz tizimidan tozalab olingan bakteriyalar 16S rRNK geni nukleotid ketma-ketliklarini o'rganish asosida *Bacillus* avlodiga mansub *B.licheniformis*, *B.subtilis*, *B.halotolerans* turlari ekanligi aniqlanib, xalqaro NCBI bazasiga kiritilgan va ularni sekvenslash natijasida olingan 16S rRNK ketma-ketliklari GenBankdagi shtammlarini BLAST tahlili asosida 99% o'xshashligi aniqlanilib, filogenetik shajara daraxti shakllantirilgan;

*B.licheniformis*, *B.subtilis*, *B.halotolerans* bakteriyalar turlarining o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini stimullovchi, patogenlarga qarshi faol antogonistik ta'sir etish xususiyatga ega ekanligiga ko'ra tuproq bioekologiyasini yaxshilanishi isbotlangan;

*Glycyrrhiza glabra* L., ildiz tizimidan ajratib olingan rizosfera bakteriyalar shtammlari asosida "Mikrobiovak" biopreparati yaratilgan va ishlab chiqarish

texnologiyasini ifodalovchi laboratoriya reglamenti hamda texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Sho‘rlangan tuproqlarni ekologik tiklash, unumdorligini oshirish, bioekologiyasini yaxshilash hamda mikroflora ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida *Glycyrrhiza glabra* L., o‘simligidan foydalanish imkoniyatlari asoslangan;

*G. glabra* L., ildizidan ajratib olingan *Bacillus licheniformis*, *B. subtilis* va *B. halotolerans* bakteriya shtammlaridan 7,5:2,5 (suv: bakteriya) nisbatdagi suspenziya shaklida urug‘lik don unuvchanligini oshirish uchun bioo‘g‘it sifatida foydalanish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Sho‘rlangan tuproqlarning bioekologik xususiyatlarini yaxshilash va mikroflorasini tiklashda shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra* L.) o‘simligi ildiz tizimidan ajratib olingan bakteriya shtammlaridan foydalanish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

*G. glabra* L., ildiz tizimidan mikrobiologik usulda ajratib olingan bakteriyalar shtammlari asosida o‘simliklarni sho‘rlanishga chidamliligini oshiruvchi va tuproq ekologiyasini yaxshilashda ahamiyatli bo‘lgan “Mikrobiovak” mikrobiologik preparati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi klassik va zamonaviy statistik dasturlar yordamida tahlil qilinganligi, nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, tadqiqotning amaliy natijalari vakolatli davlat tashkilot va tegishli vazirliklar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati, shirinmiya yordamida sho‘rlangan tuproqlar mikroflorasi yaxshilanganligi va ekologik qayta tiklanganligi, o‘simlikning ildizidan ajratib olingan *Bacillus* turkumiga mansub azot to‘plovchi bakteriyalarning yangi shtammlaridan tuproq-iqlim sharoitga mos va tuproq ekologiyasini yaxshilash, sho‘rlangan yerlarni ekologik qayta tiklashda foydalanishning ilmiy-fundamental asoslarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sho‘rlangan tuproqlar mikroflorasini yaxshilashda shirinmiya o‘simligidan foydalanilganligi, undan mikrobiologik usullar yordamida ajratib olingan yangi bakteriya shtammlari o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi hamda biologik azotfiksatsiya jarayonining jadallashtirilganligi hamda tuproq bioekologiyasi va unumdorligi yaxshilanib, hosildorlik oshganligi, ekin maydonlarining ekologik holati qayta tiklanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** *Glycyrrhiza glabra* L., o‘simligining ildiz tizimidan bakteriya shtammlarini ajratish va ulardan sho‘rlangan tuproqlarning bioekologiyasini yaxshilash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Shirinmiya ekish texnologiyasi va ildiz tizimidan ajratib olingan bakteriya shtammlari asosida yaratilgan “Mikrobiovak” biopreparatidan Sirdaryo viloyatida Boyovut tumanining “Boyovutlik zahmatkash yeri” va “Ezgu niyat samarasi” fermer xo‘jaliklari, Mirzaobod tumanidagi “Oxunboboyev” SIU hududida “Bek cluster” MChJning turli darajada sho‘rlanish tufayli foydalanishdan chiqib ketgan

100 gektar yer maydonlarini ekologik qayta tiklashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 2-iyundagi 05/06-02-554-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tuproq hajm massasi 1,36 dan 1,21 g/sm<sup>3</sup>, solishtirma massasi 2,68 dan 2,47 g/sm<sup>3</sup>ga yaxshilangan, tuproq g‘ovakligi o‘rtacha 50% dan 55% ga, mikroorganizmlar va ularning biologik faolligi 50,2%ga oshishi hisobiga ekologik holatni yaxshilash imkonini bergan.

Shirinmiya ildizidan ajratib, tozalab olingan *Bacillus halotolerans*, *Bacillus subtilis*, *Bacillus licheniformis* bakteriya shtammlarni genetik jihatdan asoslab, Xalqaro Gen Bank - NCBI bazasiga OR164401.1, OR164402.1, OR164428.1 ID raqamlari bilan joylashtirilgan (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/OR164401.1>; <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/OR164402.1>; <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/OR164428.1>). Natijada, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda foydalanish imkoniyati paydo bo‘lgan.

Mirzaobod tumanida “Bek klaster” MCHJ QKga qarashli 150 gektar sho‘rlangan yer maydonida shirinmiya ildiz tizimidan ajratib olingan bakteriya shtammlari asosida yaratilgan “Mikrobiovak” biopreparatidan bug‘doy va g‘o‘za yetishtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025 - yil 19 - apreldagi 03-03/1-03/3-3793-son ma‘lumotnomasi). Natijada bug‘doy urug‘ining unuvchanligi 75%dan 90%ga, chigitning unuvchanligi 70%dan 85%ga, o‘rtacha hosildorlik ko‘rsatkichi bug‘doyda gektariga 33 sentnerdan 40 sentnerga, paxta hosildorligini 28 sentnerdan 35 sentnerga oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 14 ta ish, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma‘ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Sho‘rlangan tuproqlar mikroflorasini yaxshilash va ekologik qayta tiklashda mikrobiologik yondashuvlar**” deb nomlangan I bobi degradatsiyaga uchragan yerlarni ekologik qayta tiklash va unumdorligini oshirishda

o‘simlik resurslaridan foydalanish bo‘yicha adabiyotlar manbalaridan olingan tadqiqotlar natijalarining tahlili batafsil bayon qilingan.

Adabiyotlarda o‘simliklarni o‘sishi va rivojlanishini stimullovchi rizosfera bakteriyalarini PGPR (plant growth–promoting rhizobacteria), o‘simliklarni o‘sishi va rivojlanishini tezlashtirish xususiyatiga ega ekanligi bilan izohlanganligi hamda *Bacillus* turkumi vakillari o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini stimullovchi, ularni kasalliklardan himoyalovchi vositalar sifatida qishloq xo‘jalik amaliyotida keng foydalanib kelinishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“*Glycyrrhiza glabra* L., ning tuproq mikroflorasi va ekologik tizimiga ta’siri hamda ildiz tizimidan bakteriya shtammlarini ajratib olish”** deb nomlangan II bobida tadqiqot obyektlari va usullari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.


Tadqiqot obyekti sifatida shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra* L.) o‘simligi va undan ajratib olingan Rizobakteriya shtammlari tanlab olingan. *G.glabra* ning sho‘rlangan tuproqlar ekologiyasi va mikroflorasini yaxshilanish asosida unumdorlik ko‘rsatkichlarini ortishi bilan bog‘liq skrininingini o‘rganishdagi metodlar bayon qilingan. *Glycyrrhiza glabra* L., ildizidan ajratib olingan bakteriyalarning genomi va klassifikatsiyalash uchun “identification of bacteria by use 16S rRNA Gene Sequence-Based method” usulidan, buning uchun esa L16S-V4\_ va V4\_1492R praymerlardan foydalinildi. 16S rRNK genining qisman ketma-ketligi 1,0 mL DNA Sequencing-Big Dye Terminator Sysle Sequencing-Ready ABI Prism (Version 3) yordamida amalga oshirilgan. Shuningdek, *Glycyrrhiza glabra* L., ildizidan ajratib, identifikatsiya qilingan bakteriya shtammlaridan tuproq ekologiyasini yaxshilashda ahamiyatli hamda o‘simliklarni o‘sishi va rivojlanishini avjlantiruvchi, patogenlariga qarshi ta’sir etuvchi ekologik xavfsiz preparat yaratish usullari qayd etilgan

Dissertatsiyaning **“*Glycyrrhiza glabra* L., ildiz mikroflorasining mikrobiologik, biokimyoviy tahlili hamda molekulyar identifikatsiyasi”** deb nomlangan III bobida *Glycyrrhiza glabra* L., ning ildiz tizimidan bakteriyalarni ajratish va ularning kimyoviy, biokimyoviy hamda molekulyar-genetik tahlil qilish natijalarining bayoni keltirilgan.

Tadqiqotlar davomida *Glycyrrhiza glabra* L., ekilib, ekologik qayta tiklanish darajasida bo‘lgan ekin maydoni tuproq mikroflorasi tarkibidan mikrobiologik usullar yordamida o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini stimullovchi istiqbolli bakteriya shtammlarini ajratib olindi. Buning uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘lgan bakteriyalarning rivojlanish darajasini bilgan holda alohida-alohida ozuqa muhitlar (pepton, susla, chapeka, Getchinson, Gauze) tayyorlanildi. Olingan tuproq namunasi (1 g) tayyorlangan ozuqalarga alohida-alohida (10 ml.dan) kolbalarga solindi va xona haroratida 30 daqiqa davomida 160 grm.min. sheykerda chayqatildi.

Shundan so‘ng hosil bo‘lgan suspenziyadan  $10^6$  hujayra/ml gacha bo‘lgan o‘n barobar suyultirilgan massa tayyorlandi.  $10^3$ ,  $10^4$ ,  $10^5$ ,  $10^6$  marta suyultirishlardan har biridan 0,1 ml dan olinib, Petri idishlariga go’sht-pepton yoki peptonli agar (PA) eshbi, susla, chapeka, getchinson va gauze ozuqa muhiti yuzasiga 28-30°C haroratda termostatda inkubatsiya qilindi.

Yuqorida nomlari keltirilgan suyuq ozuqa muhitlarida suspenziyasi tayyorlangan tuproq namunalari tegishli ozuqa muhitlarga ekildi. Eshbida tayyorlangan suspenziya Petri idishidagi agarli eshbi ozuqa muhitida, suyuq gauze ozuqa muhitida tayyorlangan tuproq suspenziyasi agarli gauze ozuqa muhitiga inkubatsiya qilindi. Petri idishlari termostatga ammonifikatorlarni aniqlash uchun 2 kun, oligonitrofillar, azot fiksatorlarini aniqlash uchun 7 kun, aktinomitsetalar uchun 10-15 kun, selluloza parchalovchi bakteriyalarni aniqlash uchun 20 kun davomida saqlandi va har kuni kuzatib borildi. Mikroorganizmlar sonini aniqlash Makkredi jadvaliga muvofiq amalga oshirildi (1-jadval).



**1-rasm. Turli ozuqa muhitlarida aniqlangan mikroorganizmlar**

1-jadval

**Tadqiqot hududi tuproqlarida mikroorganizm guruhlarining miqdori (1gr tuproqda). Boyovut tumani “G‘alaba” SIU.**

T/r	Fosfor mobilizatsiyalovchi mikroorganizmlar	Sporalilar	Mikroskopik zamburug‘lar	Achitqilar	Aktinomitsetalar	Azotfiksatorlar	Aerob selluloza parchalovchilar
1-namuna	-	$7 \times 10^4$	$4 \times 10^4$	$2 \times 10^3$	152	154	$28 \times 10^4$
2-namuna	34	$6 \times 10^5$	$3 \times 10^4$	184	99	123	$16 \times 10^3$
3-namuna	28	$5 \times 10^3$	$2 \times 10^4$	103	84	94	$14 \times 10^2$
4-namuna	15	$4 \times 10^2$	$2 \times 10^3$	12	47	61	34

Jadvalda ifodalangan natijalarga ko‘ra 1-tuproq namunasida aerob selluloza parchalovchi mikroorganizmlar soni eng ko‘p miqdorda ( $\text{KHB/gr } 28 \times 10^4$ ) va fosformobilizatsiyalovchi mikroorganizmlar uchramasligi aniqlandi. 2-tuproq namunasida ham azotfiksatorlar va aktinomitsetalar 1-namunaga nisbatan miqdori kamligi ma‘lum bo‘ldi. 4-namunada mikroorganizmlar juda kam uchrashi kuzatildi (1-rasm).

Ushbu rasmdan ham ko‘rinib turibdiki 4-namunadagi tuproqda mikroorganizmlar soni juda past ekanligi, 1-namunada esa mikroorganizmlar soni qolganlarga nisbatan yuqori bo‘lganligi ma‘lum bo‘ldi. 2-3 namanalarda ham nisbatan bir-biriga yaqin ko‘rsatkichlarni qaytd etdi.

*Glycyrrhiza glabra* L., ildiz tizimida rizosfera bakteriyalar bo‘lib, tadqiqotlar davomida bu bakteriyalar kulturalangan ozuqa muhitda ham yuqorida qayd qilingan istiqbolli va ahamiyatli bakteriyalar yaxshi rivojlandi. Zararli bakteriyalar va zamburug‘lar esa rizosfera bakteriyalari atrofida rivojlanmadi. Bundan shunday xulosa qilindiki, rizosfera bakteriyalar bilan hamkorlikda (simbiotik) rivojlanish

xususiyatiga ega bo‘lib, boshqa zararli bakteriya va zamburug‘larga nisbatan antogonistik ta‘sir etish xususiyatiga ega ekan (2-rasm).

Tuproqning sho‘rlanishi sharoitida o‘simliklar rizosferasi mikroorganizmlari o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini avjlantiruvchi biologik faollikni namoyon qildi. Ajratilgan izolyatning tozaligi mikroskopiya usulida o‘rganilganda gomogen izolyat ekanligi va mayda tayoqchasimon bakteriyalardan iboratligi mikroskop ostida ko‘rindi (3-rasm).


Mikroskop ostida faol bakteriya hujayralari ko‘rilganda, ularni juda tez harakat qilishi kuzatildi. Bakteriyalarning o‘sinh optimum harorati 28°C va pH muhiti 7,2 ekanligi qayd etildi. Bakteriya izolyatining morfokultural xususiyatlari orqali ularni dastlabki rizosfera bakteriya avlodlari ekanligi aniqlandi.



**2-rasm. *Bacillus licheniformis*, *Bacillus holotolerans* va *Bacillus subtilis* yaxshi antagonist xususiyatini namoyon qilganligi**



**3-rasm. *Glycyrrhiza glabra* L. rizosferasidan ajratilgan bakteriyaning ko‘rinishi**



**4-rasm. Bakteriyali suyuqlik tarkibidagi gibberellin fitogarmonining faollik ko‘rsatkichi**

Bakteriyadan ajraladigan gibberellen fitogormoni suyuqlikdagi faolligi asosida YSSXda o'rganildi (4-rasm).

YSSX yordamida olingan ma'lumot 1,147 mg/ml da ekanligi va bu bir litr hisobida 115 mg gibberilen fitogormoni borligini ko'rsatdi. YSSXda aniqlanilgan gibberellen GK-1 standart bilan bir xil faollikni berdi (4-rasm).

DNK-DNK gibrizatsiyasi va 16S rRNK geni nukleotid ketma-ketliklarini o'rganish asosida substratdan ajratib olingan bakteriya shtammlari o'rtacha 60-70% bir-biriga o'xshash bo'lishi, 16S rRNK geni tahlili natijalari bo'yicha nukleotid ketma-ketlikligi 97,5-99,9% muvofiqlikda bo'lishi qayd etildi.

Bunda *Glycyrrhiza glabra* L., ildizpoyasidan ajratib olingan bakteriyalar, xususan, *Bacillus* avlodiga mansub *B.licheniformis*, *B.subtilis* va *B.halotolerans* shtammlarining filogenetik o'rnini aniqlash mumkin bo'ldi.


Sekvenirlash natijasida olingan 16S rRNK ketma-ketliklari o'rganilgan shtammda GenBank dagi shtammlar *B.licheniformis*, *B.subtilis* va *B.halotolerans* turlari shtammlari *Bacillus* turkumi turlari bilan o'zaro muvofiq kelishini, ya'ni 89-99% o'xshashlik mavjudligi va ma'lumotlar bazasidagi referentlangan shtammlar 16S rRNK ketma-ketliklari bilan yaqin kelishi ularning filogenetik yaqin tur ekanligini hamda 16S rRNK geni ketma-ketliklari bo'yicha shoxlanish BLAST tahlili asosida aniqlanib, 99% o'xshashlikni ko'rsatdi. Bunda *G.glabra* ildizpoyasidan ajratib olingan bakteriyalar, xususan *B.licheniformis*, *B.subtilis* va *B.halotolerans* shtammlarining filogenetik o'rnini aniqlandi.

**PZR mahsulotining gel elektroforez yordamida tahlili.** PZR mahsuloti 1.5% agarozda gelida elektroforez qilindi. 1465 (bp) nukleotid juftligidagi PZR mahsuloti geldan kesib olindi (5-rasm) va maxsus geldan tozalovchi filtrli to'plamlar (QIAquick Gel Extraction Kit) yordamida tozalandi.


**Sekvens qilish.** PZR mahsulotlari Sanger metodida nukleotid ketma-ketligi aniqlandi. Bunda quyidagi praymer juftligidan foydalanildi:

- 1) 16S-V4\_27F AGAGTTTGATCMTGGCTCAG;
- 2) 16S-V4\_1492R TACCTTGTTACGACTT;

Olingan sekvens natijalari Sequensher 5.1 software yordamida tahlil qilindi. Yuqorida bayon qilingan sekvens natijalari NCBI ma'lumotlar bazasidan foydalanib tahlil qilindi. Olingan DNKning sifati va konsentratsiyasi Nanodrop spektrofotometri (Thermo Fisher Scientific, AQSh) yordamida baholandi. PZR mahsulotlari yordamida olingan ketma-ketliklar BLAST yordamida NCBI ma'lumotlar bazasidagi mos ketma-ketliklari bilan solishtirildi. Filogenetik tahlil MEGA X dasturi yordamida o'tkazildi va filogenetik daraxt topologiyasining mustahkamligini baholash uchun bootstrap tahlili (1000 ta takroriy) bilan qo'shish usuli yordamida filogenetik daraxt shakllantirildi (6-rasm).




5-rasm. PZR na'munalarining 1.5% agarozda gelida tahlili. M- marker 250 bp (DNA ladder); #2-6 - Bakteriya namunalari



**6-rasm. *Bacillus* turlari o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatadigan filogenetik daraxt. Ajratilgan shtammlar ko'k rangda ko'rsatilgan**

16S rRNK gen ketma-ketligidan tuzilgan filogenetik daraxt ajratilgan bakteriya shtammlari va muayan *Bacillus* turlari o'rtasidagi munosabatlarning to'liq ko'rinishini ta'minlaydi. Bootstrap qiymatlari daraxtdagi shoxlarning ishonchlilik darajasini ko'rsatadi, 70%dan yuqori qiymatlar odatda ishonchli hisoblandi. *B.licheniformis*, *B.subtilis* va *B.halotolerans* turlarining 16S rRNK geni ketma-ketliklari National Senter for Biotechnology Information (NCBI) bazasida tekshirib ko'rilganda, *Bacillus* sp. GDUE.Biol shtammi 100% o'xshashlik bilan *B.licheniformis* turiga, *Bacillus* sp. GDUE.Biol 2 shtammi esa 99,91 % o'xshashlik bilan *B.subtilis* va *B.halotolerans* bakteriya turlariga va *Bacillus* sp. GDUE.Biol 3 shtammi 99,60 % o'xshashlik bilan *B.halotolerans* turlariga o'xshash ekanligi aniqlandi. Ushbu shtammlarning 16S rRNK genlari ketma-ketligi NCBI ma'lumotlar bazasiga joylandi va *B.licheniformis* GDUE.Biol OR164428.1



**7-rasm. *Bacillus licheniformis*, *Bacillus subtilis*, *Bacillus halotolerans*. bakteriya shtammlarining Proteaza, Amilaza, Sellyulaza fermentlarinig faollik ko'rsatkichlari**

*B.subtilis* GDUE.Biol OR164402.1 va *B.halotolerans* GDUE.Biol OR164401.1 registratsion raqamlar olindi.

Bakteriya shtammlarining faolligi ular ishtirokida amalga oshadigan biologik jarayonlar bilan tavsiflanadi. Garchi, tabiatda modda va energiya almashinuvi bakteriyalarning mavjudligi bilan qayd etilsada, lekin, ularning faolligi hujayrasidagi fermentlarning miqdoriy va faollik ko'rsatkichlari asosida baholandi.

*B.licheniformis*, *B.subtilis*, *B.halotolerans* shtammlarining organik moddalarni parchalash va tuproqdagi ozuqa moddalarining mavjudligini oshirish imkoniyatlarini baholash uchun ferment faollik darajalari o'rganildi (7-rasm).


Proteazalar, amilazalar va sellyulalar fermentlari murakkab organik birikmalarni o'simliklar o'zlashtira oladigan oddiyroq shakllarga ajratishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu fermentlarning faolligini o'lchash orqali ushbu shtammlarning tuproq unumdorligiga va o'simliklarning oziqlanishiga hissa qo'shish ko'rsatkichlarini baholash mumkin bo'ldi. Bu o'simliklarning o'sishi va qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

*B.licheniformis*, *B.subtilis*, *B.halotolerans* shtammlarining o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini *G.glabra* nihollarining rivojlanishida kuzatildi (8-rasm).

Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, *B.subtilis* boshqa shtammlarga nisbatan yuqori faollikni namayon qilishi asosida o'simlik nihollarining o'sishi boshqalariga nisbatan yuqori bo'ldi.

